

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan ijro intizomini samarali
tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 25-iyulda **“Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 117-sonli** farmon qabul qilinib, unga ko‘ra Prezident **farmon, qaror, farmoyish** va **topshiriqlari** hamda hukumat **qaror** va **topshiriqlari** ijrosini tashkil etish va **nazorat qilishning yanada samarali mexanizmlari** yo‘lga qo‘yildi.

Bu bilan, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarida berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida **“O‘zsanoatqurilishbank” ATB** tomonidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, bankda ijro intizomiga bevosita mas‘ul mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida **Ijroni boshqarish va rivojlantirishni tahlil qilish departamenti** faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, bankda **ish yuritish** va **ijro nazoratini tashkil etish**da xat-hujjatlarning **elektron aylanishi** yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, bugungi kunda, ushbu **elektron dastur** orqali:

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar kelib tushgan vaqtdan boshlab **30 daqiqa** mobaynida Ijro departamenti mas‘ul xodimi tomonidan **ro‘yxatdan o‘tkaziladi** hamda **rahbariyatga axborot beriladi**;

- rahbariyat **bir kun muddatda** mas‘ul ijrochini belgilagan holda **tegishli topshiriqlarni beradi**;

- **belgilangan muddat** doirasida mas‘ul ijrochi tomonidan topshiriq ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlar va hujjatlar rahbardan elektron tasdiqlanib, **tegishli tashkilotlarga yuboriladi**.

Ushbu elektron dastur orqali topshiriqlarning bajarilish jarayoni doimiy nazorat qilinadi, belgilangan muddatlarda ijro etilishini monitoring qilish, ijro intizomini tahlil qilish hamda hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari yaratilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida joriy yilning **29-sentabr** holatiga **“Ijro.gov.uz”** tizimi orqali quyidagi ijro mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **jami 380 ta** hujjatda **1 656 ta** topshirig‘i kelib, **1 258 tasi (76 foizi)**ning ijrosi to‘liq ta‘minlangan;

- **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi** tomonidan **20 ta** hujjatda **72 ta topshiriq** kelib, **49 tasi (68 foiz)** ijrosi ta'minlandi;

- **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** tomonidan **133 ta** hujjat bilan **263 ta topshiriq** kelib, **240 tasi (91 foizi)** bajarilgan.

Ta'kidlash joizki, qolgan topshiriqlar belgilangan muddatlarga muvofiq ijro etilmoqda.

Berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash maqsadida o'rnatilgan tartibda **barcha zarur choralar** ko'rib kelinmoqda. **Jumladan:**

Birinchidan, har haftaning juma kuni Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari huzurida **"Ijro.gov.uz"** elektron tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar hamda maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishi holati muhokama qilinadi. Shuningdek, **har haftaning dushanba kuni** Boshqaruv raisi boshchiligida ijro intizomi yo'nalishidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha masalalar yuzasidan yig'ilishlar o'tkaziladi.

Ikkinchidan, haftada bir marotaba rais o'rinbosarlari boshchiligida maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilish holati tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda ko'rib chiqilib, muhokama qilinmoqda.

uchinchidan, har oy yakunida bank Boshqaruvining kengaytirilgan yig'ilishlarida **maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishiga mas'ul xodimlarning javobgarligini oshirish** maqsadida, bank Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari ishtirokida har bir maqsadli ko'rsatkich tanqidiy tahlil qilinib, zarur choralar ko'rib borilmoqda;

to'rtinchidan, reja-grafikga muvofiq, bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari hamda mintaqaviy va bank xizmatlari markazlari mas'ul xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida **iqtisodiy o'quvlar** tashkil etilmoqda.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida bank tizimida **kunlik nazorat** o'rnatilgan bo'lib, **topshiriqlarning ijro holati** yuzasidan **belgilangan muddatlarda hisobotlar** taqdim etib boriladi.